

**Farg‘ona viloyati Qo‘qon shahar  
XTMFMTEB tasarrufidagi  
aniq fanlar yo‘nalishidagi  
32-ixtisoslashtirilgan davlat  
umumta’lim maktabining  
*“Vatanim bayrog‘ini  
yuksaklarga ko‘taraylik”*  
shiori ostida o‘tkaziladigan**

## ***TADBIRI***

**Tayyorladi:**

**4-“F” sinf rahbari: Lolaxon Dexkanbayeva**

### **1-boshlovchi:**

Assalom hurmatli, aziz mehmonlar,

Assalom ustozlar, qalbi qaynoqlar.

Assalom ilmga tashna chanqoqlar,

Assalom barcha-barcha katta-yu yoshlar.

### **2-boshlovchi:**

Здравствуйте лучшее

Слово на свете!

Здравствуйте птицы!

Здравствуйте дети!

Здравствуйте папы!

Здравствуйте мамы!

Оно не сравнимо с другими словами.

Здравствуйте наши учителя!

### **3-o'quvchi:**

Gud moning, gud moning,

Gud moning tu yu.

Gud moning, gud moning,

Ay em gled tu si yu.

### **4-o'quvchi:**

Har sahar yangragan ulug' madhiyam,

Har satri hikmatga to'liq madhiyam.

Eng go‘zal qo‘shig‘i ozod elimning,

Muqaddas madhiyam, qutlug‘ madhiyam.

### **Madhiya musiqa sadolari ostida yangraydi.**

**5-o‘quvchi:** Bugun ona yurtimizda katta tantana!

**6-o‘quvchi:** O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘imiz tasdiqlangan kun bugun.

**7-o‘quvchi:** O‘zbekiston Respublikasi davlat bayrog‘i O‘zbekiston Oliy Kengashining VII sessiyasida 1991-yil 18-noyabr kuni tasdiqlangan.

**O‘quvchi:** O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 2-moddasida: “O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘i O‘zbekiston Respublikasi davlat suverenitetining ramzidir” deb belgilangan.

**O‘quvchi:** O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 3-moddasida: ”O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i xalqaro munosabatlarda O‘zbekiston Respublikasining timsoli bo‘ladi” deyilgan.

**O‘quvchi:** O‘zbekiston Respublikasi Qonunida bayroqning o‘lchamlari aniq ko‘rsatilgan. Ya’ni, O‘zbekiston Davlat bayrog‘ining butun uzunligi bo‘ylab o‘tgan to‘q moviy rang, oq rang va to‘q yashil rangli 3 ta endan tarkib topgan to‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi matodir.

**O‘quvchi:** Bayroqning uzunligi 250 smga, kengligi 125 smga teng.

**O‘quvchi:** Moviy rang, oq rang va yashil rangli enlarning kengligi bir xil. Har bir en 40smga teng.

**O‘quvchi:** O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘ining o‘rtasidagi oq rangli enning chetlaridan kengligi 2,5smga teng qizil hoshiyalar o‘tkazilgan.

**O‘quvchi:** Davlat bayrog‘i va uning ramzi bugungi O‘zbekiston sarhadida qadimda mavjud bo‘lgan davlatlar bilan tarixan bog‘liqlikni anglatadi, hamda Respublikaning milliy-madaniy an’analarini o‘zida mujassamlashtiradi.

**O‘quvchi:** Bayroqdagi moviy rang tiriklik mazmuni aks etgan mangu osmon va obihayot ramzidir.

**O‘quvchi:** Timsollar tilida bu-yaxshilikni, donishmandlikni, halollikni, shon-shuhrat va sadoqatni bildiradi. Amir Temur davlati bayrog‘ ham moviy rangda edi.

**O‘quvchi:** Bayroqdagi oq rang - muqaddas tinchlik ramzi bo‘lib, u kun charog‘onligi va koinot yoritgichlari bilan uyg‘unlashib ketadi. Oq rang poklik, beg‘uborlik, soflik, orzu va xayollar tozaligi, ichki go‘zallikka intilishning timsolidir.

**O‘quvchi:** Yashil rang - tabiatning yangilanish ramzi. U ko‘pgina xalqlarda navqironlik, umid va shodumonlik timsoli hisoblanadi.

**O‘quvchi:** Qizil chiziqlar vujudimizda jo‘shib oqayotgan hayotiy qudrat irmoqlaridir!

**O‘quvchi:** Navqiron yarim oy tasviri bizning tarixiy an‘analarimiz bilan bog‘liq. Ayni paytda, u qo‘lga kiritilgan mustaqilligimiz ramzidir.

**O‘quvchi:** Yulduzlar barcha uchun ilohiy sanalgan. O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘idagi 12 ta yulduz tasviri ham tarixiy an‘analarimiz, qadimgi quyosh yilnomamizga bevosita aloqadordir.

**O‘quvchi:** Bizning 12 yulduzga bo‘lgan e‘tiborimiz O‘zbekiston sarhadlaridagi qadimgi davlatlar ilmiy tafakkurida “nujum ilmi” taraqqiy etganligi bilan ham izohlanadi.

**O‘quvchi:** Davlat bayrog‘imizdagi 12 yulduz tasviri o‘zbek xalqi madaniyatining qadimiyligi, uning komillikka, o‘z tuprog‘ida saodatga intilish ramzi sifatida tushunish lozim.

**O‘quvchi:** Ranglarim, ranglarim,

Oppoqdir tonglarim.

Osmon to‘q zangori.

Yam-yashil bog‘larim.

Yoqimli havo rang,

Tanaga davo rang.

Sevimli moviy ko'k,

Kamalak rang –barang.

**O'quvchi:** Qip-qizil lolalar,

Oq ko'ngil bolalar.

Turfa xil ranglarda,

Yashnaydi dalalar.

Atrofga bir qarang,

Asal rang, tilla rang.

Quvonchdan dillarga,

Baxsh etar jilo rang.

**Qo'shiq: "Chizaman"**

**O'quvchi:** Yuksal, yuksal diyorim,

Sensan baxtim , bahorim,

Madhing jo'shib kuylamoq,

Ko'nglimdagi shiorim.

Go'zal gulshan, bog'laring,

Go'zal ulkan tog'laring.

Dilga orom berguvchi,

Charog'on har yoqlaring.

**O'quvchi:** Sen tandagi jonimsan,

Tomirdagi qonimsan.

Mehring yashar qalbimda,  
G'ururim, ham shonimsan.  
Yashna, yuksal diyorim,  
Sensan baxtim, bahorim.  
Madhing jo'shib kuylamoq,  
Shudir ahdu qarorim.

**Raqs: "Beshta qiz"**

**O'quvchi:** G'uncha guldayman,  
Bog'dagi bulbuldayman.  
Sog'lom jon, sog'lom tanman,  
O'zinga bir jahonman.  
Hayotdan zavq olaman,  
Baxti kulgan bolaman.

**O'quvchi:** Sog'lom , quvnoq bolaman,  
Mehnatdan zavq olaman.  
Agarda ish qilmasam,  
Tezzerikibqolaman.  
Hozir maktab bolaman,  
Mehnatdan zavq olaman.  
Katta bo'lsam haqiqiy  
Halol odam bo'laman

**Qo' shiq: "Men kimman "**

Biz soʻzlari biyronmiz,

Chopqillagan jayronmiz.

Erkatoyimiz polvonmiz,

Bolajonmiz, bolajon.

Bizlar lola yanoqmiz,

Chin koʻngildan inoqmiz.

Bulbul-u qarqunoqmiz,

Bolajonmiz, bolajon.

**Oʻquvchi:** Boʻlmasin hech bizning,

Kam-u koʻstimiz.

Koʻpaysin har yerda,

Yaqin doʻstimiz.

Olamni yayratsin kulgularimiz,

Gurullab yashnayversin orzularimiz.

**Raqs: "3xil kompozitsiya"**

***Hamma raqs ichida:***

Boʻlarda toʻkinchilik,

Elga baxt xursandchilik.

Dalalarda moʻl hosil,

Olib kelgay ushbu yil.

Gullagan oʻzi har yon,

Yayrasin yer-u osmon.

Bobomiz bo'lsin omon,

Yashnasin bog'-u bo'ston.

**O'quvchi:** Bizning xalqimiz mehmondo'st xalq.

**O'quvchi:** Bizning xalqimiz mehmonni quchoq ochib kutib oladi.

**Qo'shiq: "Mehmon keldi"**

**O'quvchi:** Bizning yurtimizda har xil millatlar ham yashaydi.

**Raqs: "Kalin"**

**O'quvchi:** Bog'imizda atirgul,

Chaman bo'lib ochildi.

Uning xushbo'y hidlari,

Har tomonga sochildi.

Gulga oshiq bulbullar,

Shu bog' uzra jamlandi.

Bir - biriga yoqimli,

Ajib kuylar boshlandi.

**O'quvchi:** Kuylang jajji bulbullar,

Ochilsin barcha gullar.

Ozodlik kuyin chaling,

Bahra olsin ko'ngillar.

Ona diyor sizniki,

Gulshan diyor sizniki.

Ketmang sira bulbullar,



O‘zbekiston bizniki.

**O‘quvchi:** Yuksak tog‘lar bizniki,  
Tog‘larga yo‘l olaylik.  
Chaman bog‘lar bizniki,  
Bog‘larga yo‘l olaylik.  
Buloqlar ko‘zin ochib,  
Gulzorlar yarataylik.  
Vatanning har bir qarich,  
Yerini yashnataylik.

**Qo‘shiq: “Ko‘k dalam”**

**O‘quvchi:** Bolalar bo‘lsa, topqir bo‘lsalar,  
Chaqqon-u epchil, chopqir bo‘lsalar.  
Ilm-u hunarga, kuchga to‘lsalar,  
Sog‘lom, barkamol avlod bo‘lsalar.

**O‘quvchi:** Vatanga aziz dilbandlar kerak,  
Sheryurak, asl farzandlar kerak.  
Shunday avlod bizning o‘zimiz,  
Aytib turadi har bir so‘zimiz.

**O‘quvchi:** Vatan oldidagi burchni hammamiz,  
Anglab olib, unga amal qilamiz.  
Yurak to‘rida ushbu so‘zlarni,  
Takror-takror aytib olg‘a yuramiz.

**O'quvchi:** Vatanim jismida,

Men ham bir bo'lak.

Vatanim menga-yu,

Men unga kerak.

**Qo'shiq: "Prezidentga va'da"**